



MATN TUSHUNCHASINING LINGVISTIK VA METODIK TALQINI

Islomova Gulnoza Ravshan qizi

Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistratura talabasi

Ernazarova Manzura Saparboyevna

Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc).prof

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn tushunchasining lingvistik va metodik talqini yoritilgan. Unda matn til tizimining eng yuqori nutqiy birligi sifatida tavsiflanib, uning mazmuniy yaxlitligi, struktur bog'liqligi, izchilligi va kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Shuningdek, matnning shakllanishida leksik va grammatik vositalarning o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar. matn, matn lingvistikasi, nutqiy birlik, bog'liqlik, yaxlitlik, izchillik, kommunikativ yondashuv, nutqiy kompetensiya, matn bilan ishlash metodikasi, til ta'limi.

Annotation. This article covers the linguistic and methodological interpretation of the concept of text. In it, the text is characterized as the highest speech unit of the language system, and its semantic integrity, structural dependence, consistency, and communicative functions are analyzed. The role of lexical and grammatical means in the formation of the text is also revealed.

Keywords: text, text linguistics, speech unity, connection, integrity, consistency, communicative approach, speech competence, methodology of working with text, language education.

Til inson tafakkuri, muloqoti va ijtimoiy munosabatlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Til birliklari nutq jarayonida o'zaro bog'lanib, ma'lum mazmunni ifodalovchi yaxlit tuzilma – matnni hosil qiladi. Shu sababli matn nafaqat tilshunoslikning, balki ta'lim metodikasining ham muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida qaraladi. Zero, fikrni to'liq va izchil bayon etish, axborotni yetkazish hamda nutqiy kompetensiyani shakllantirish bevosita matn bilan bog'liq jarayondir.

Hozirgi kunda tilni o'qitishda kommunikativ yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir paytda matn bilan ishlash masalasi yanada dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki o'quvchi til birliklarini alohida-alohida emas, balki matn tarkibida o'zlashtirgandagina ularning haqiqiy funksiyasini anglaydi. Matn orqali lug'at boyligi kengayadi, grammatik ko'nikmalar mustahkamlanadi, eng muhimi, mustaqil fikrlash va nutq tuzish malakasi rivojlanadi.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab dars jarayonlarida matn ko'proq o'qish yoki tahlil materiali sifatida qo'llanib, uning mazmuniy yaxlitligi, mantiqiy bog'lanishi hamda kommunikativ imkoniyatlari yetarli darajada ochib berilmaydi. Bu esa matnning lingvistik mohiyati bilan uni o'qitish metodikasi o'rtasida muayyan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.



Mazkur holat matn tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan chuqurroq o'rganish, uning lingvistik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shu bois ushbu maqolada matn tushunchasining lingvistik va metodik talqini yoritilib, matn bilan ishlashning didaktik imkoniyatlari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi.

Matn muammosi tilshunoslik tarixida nisbatan keyinroq mustaqil tadqiqot obyekti sifatida shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda u nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganilgan yo'nalishlardan biriga aylandi. Dastlabki tadqiqotlarda matn sintaktik birliklarning kengaygan ko'rinishi sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik u murakkab kommunikativ va semantik tizim sifatida izohlanmoqda.

Amerikalik tilshunos Z.S.Harris matn lingvistikasining shakllanishiga muhim hissa qo'shgan olimlardan biri hisoblanadi. U diskurs tahlili doirasida gaplar o'rtasidagi ketma-ketlik va bog'lanishlarni tahlil qilib, matnni alohida gaplar yig'indisi emas, balki struktur yaxlitlikka ega bo'lgan tizim sifatida ko'rib chiqadi. Olimning fikricha, matn mazmuni gaplarning formal ketma-ketligi orqali emas, balki ularning o'zaro semantik munosabatlari orqali yuzaga chiqadi [1].

Matnning semantik va pragmatik jihatlarini chuqur tadqiq etgan olimlardan yana biri – Teun A. van Dijk. U matnni ijtimoiy-kognitiv hodisa sifatida talqin etib, uning mazmuni inson tafakkuri, bilim zaxirasi hamda kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bog'liqligini asoslaydi. Van Dijk matn tuzilishini makro va mikro darajalarga ajratadi hamda aynan makrostrukturani anglash matn mazmunini to'liq tushunishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Bu yondashuv matnni o'qitishda mazmuniy yaxlitlikka e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi [2].

Funksional yo'nalish vakillari, xususan M.A.K.Halliday va R.Hasan, matnni tilning real qo'llanish shakli sifatida baholaydilar. Ularning tadqiqotlarida matnning asosiy belgisi sifatida “bog'liqlik” va “yaxlitlik” tushunchalari ajratib ko'rsatiladi. Olimlar grammatik va leksik vositalar yordamida matnda ichki birlik ta'minlanishini ilmiy asoslab berganlar. Ushbu qarashlar ta'lim jarayonida matnni faqat mazmunan emas, balki shaklan ham tahlil qilish muhimligini ko'rsatadi [3].

Rus tilshunosligida ham matn nazariyasiga oid izlanishlar keng o'rin olgan. Xususan, I.Galperin matnni yozma nutqning tugallangan mahsuli sifatida tavsiflab, uning informativlik, tugallanganlik, izchillik kabi mezonlarini ajratadi. U matnni kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi mustaqil nutqiy birlik sifatida belgilaydi. Bu yondashuv matnni dars jarayonida tayyor mahsul sifatida emas, balki maqsadga yo'naltirilgan nutqiy faoliyat natijasi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi [4].

O'zbek tilshunosligida ham matn masalasi qator tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, M.B.Botirova va S.S.Islomovlar matn til tizimining eng yuqori nutqiy birligi bo'lib, u gaplarning mazmuniy, mantiqiy va grammatik bog'lanishi asosida shakllanadigan yaxlit kommunikativ tuzilma sifatida talqin etadi [5]. Shuningdek, G.M.O'saraliyeva matn tushunchasi va uni tahlil qilishning metodologik asoslari ko'rib chiqib, tahlil turlari va



badiiy matnni lingvistik sharxlashning asosiy jihatlarini yoritgan hamda adabiy matnni tahlil qilish jarayoni til birliklarining semantik va kommunikativ funksiyalari, shuningdek, g'oyaviy-estetik yo'nalish orqali amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlaydi. [6]

Keltirilgan ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, matn tilshunoslikda struktur, semantik, pragmatik hamda kommunikativ jihatdan turlicha yondashuvlar asosida talqin etilgan. Biroq metodik tadqiqotlarda ushbu nazariy xulosalarni bevosita ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Demak, matnning lingvistik mohiyatini o'qitish metodikasi bilan uyg'unlashtirish, nazariya va amaliyotni birlashtirgan holda yondashuv ishlab chiqish zarurati mavjud.

Til birliklari nutq jarayonida o'zaro bog'lanib, muayyan mazmunni ifodalovchi yaxlit tuzilmani hosil qiladi va bu tuzilma matn sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun matnni til tizimining eng yuqori bosqichi, fikrning to'laqonli ifoda shakli deb qarash mumkin. Inson o'z munosabati, qarashi yoki axborotni alohida so'zlar yoki bitta gap orqali emas, balki izchil va mantiqan bog'langan gaplar ketma-ketligi orqali bayon etadi. Ana shu jarayonda matn shakllanadi va u kommunikativ vazifani bajaruvchi asosiy nutqiy birlikka aylanadi.

Matnni oddiy gaplar yig'indisi sifatida talqin qilish to'g'ri emas, chunki har qanday gaplar ketma-ketligi ham matn bo'lavermaydi. Matn hosil bo'lishi uchun unda mazmuniy yaxlitlik, mantiqiy izchillik va grammatik bog'liqlik mavjud bo'lishi zarur. Gaplar o'rtasidagi semantik munosabat, umumiy mavzu birligi hamda bitta kommunikativ maqsadga yo'naltirilganlik matnning asosiy belgilari hisoblanadi. Shu belgilar orqali matn parchalanmagan, ichki jihatdan bir butun nutqiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Matnning yaxlitligi turli lingvistik vositalar yordamida ta'minlanadi. Xususan, leksik takrorlar, sinonimik almashuvlar, olmoshlar, bog'lovchilar, ko'rsatish birliklari, zamon va shaxs shakllarining mosligi kabi unsurlar gaplar o'rtasida bog'lanish hosil qiladi. Bunday vositalar matnning ichki tuzilishini mustahkamlab, fikrning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Agar bu vositalar o'rinli qo'llanmasa, nutqda uzilish paydo bo'ladi, mazmun tarqoqlashadi va matnning tushunarligi pasayadi. Demak, matnni lingvistik jihatdan tahlil qilishda uning nafaqat mazmuni, balki struktur qurilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Matnning mazmuniy tomoni esa undagi axborotning muayyan tartibda joylashuvi bilan belgilanadi. Odatda har bir matnda kirish, asosiy bayon va yakuniy xulosa ko'rinishidagi mantiqiy rivojlanish kuzatiladi. Fikr bosqichma-bosqich kengayib boradi, asoslanadi va ma'lum natija bilan tugallanadi. Bunday tuzilish matnni qabul qilishni osonlashtiradi hamda tinglovchi yoki o'quvchiga muallif niyatini to'liq anglash imkonini beradi.

Matnning ana shu lingvistik xususiyatlari uni ta'lim jarayonida samarali qo'llash uchun ham mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tilni o'qitish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, o'quvchi til birliklarini alohida-alohida o'rganganida ularni nutqda qo'llashda qiynaladi. Aksincha, so'z va grammatik shakllar matn tarkibida o'zlashtirilganda ularning vazifasi tabiiy ravishda anglashiladi. Matn o'quvchini fikrni izchil bayon etishga, mantiqan bog'lashga, mazmunni mustaqil ifodalashga o'rgatadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shu bois matn bilan ishlash ta'lim jarayonining markaziy bo'g'iniga aylanishi lozim. Darslarda matn faqat o'qib beriladigan yoki grammatik topshiriqlar bajariladigan material sifatida emas, balki faol nutqiy faoliyat manbai sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq. Matn mazmunini tahlil qilish, asosiy g'oyani aniqlash, reja tuzish, qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish, shuningdek, matn asosida yangi matn yaratish kabi mashqlar o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi. Bunday ish turlari nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradi.

Turli janrdagi matnlardan foydalanish ham metodik jihatdan muhimdir. Badiiy matnlar obrazli tafakkurni va estetik didni shakllantirsa, ilmiy va publitsistik matnlar mantiqiy fikrlash hamda dalillash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o'quvchi turli nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini mos shaklda ifodalashga o'rganadi. Bu esa nutq madaniyatining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, matn til tizimining eng yuqori va murakkab nutqiy birligi bo'lib, unda tilning barcha sathlari o'zaro uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi. Matn orqali fikr izchil, mantiqan bog'langan va tugallangan shaklda ifodalanadi. Shu sababli uni faqat gaplar ketma-ketligi sifatida emas, balki mazmuniy, struktur va kommunikativ jihatdan yaxlit tizim sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Matnning izchillik, bog'liqlik, informativlik va tugallanganlik kabi belgilari uning mustaqil lingvistik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, matnning nazariy xususiyatlari ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Til birliklarini matn asosida o'qitish o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtiradi, fikrni erkin va aniq bayon etish ko'nikmalarini shakllantiradi hamda mustaqil tafakkurni rivojlantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida o'quvchi nafaqat grammatik bilimlarni o'zlashtiradi, balki mazmunni anglash, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarishga ham o'rganadi. Bu esa ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalari matnning lingvistik talqini bilan metodik yondashuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Matnning ichki tuzilishi va bog'lanish mexanizmlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan dars jarayoni samaraliroq bo'ladi. Shu bois matnni o'qitishning markaziy birligi sifatida qo'llash, turli janrdagi matnlar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish hamda o'quvchilarning mustaqil matn yaratish faoliyatini rivojlantirish dolzarb metodik vazifa sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, matn tushunchasini lingvistik va metodik jihatdan kompleks o'rganish til ta'limining mazmunini boyitadi, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harris, Z. S. Discourse analysis // Language. – 1952. – Vol. 28, № 1. – P. 1–30.



2. Van Dijk, T. A. Text and context: explorations in the semantics and pragmatics of discourse. – London : Longman, 1977. – 261 p.
3. Halliday, M. A. K., Hasan, R. Cohesion in English. – London : Longman, 1976. – 374 p.
4. Гальперин, И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва : Наука, 1981. – 139 с.
5. Botirova M.B., Islomov S.S. Badiiy matnning lingvistik mohiyati // ORIENSS. 2021. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnning-lingvistik-mohiyati>
6. O‘saraliyeva G.M. Badiiy matn va uni tahlil qilish metodologiyasi // Экономика и социум. 2023. №5-2 (108). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matn-va-uni-tahlil-qilish-metodologiyasi>